

№ ____-sonli MIKROQARZ SHARTNOMASI

Toshkent sh.

00.00.0000 y.

OOO "LOMBARD HAMKOR-KREDIT" MChJ keyingi o'rinlarda matnda «Lombard» nomidan, Markaziy banki ro'yxatga olish raqami № 10-sonli, direktor Халилова Л. А. , Ustav asosida xarakatlanuvchi bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi _____, pasport ma'lumotlari seriyasi **AB №** _____-sonli, _____ yilda berilgan, keyingi o'rinlarda matnda "Qarz oluvchi" deb ataluvchi boshqa tomondan, birgalikda esa keyingi o'rinlarda matnda "Tomonlar" deb ataluvchi, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzilgan.

1. Shartnoma mavzusi

- 1.1.** "Lombard" tomonidan "Qarz oluvchi" ga shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida mikroqarz berishi, "Qarz oluvchi" esa mikroqarz olingan mablag'larni qaytarishni va mikroqarzdand foydalanganlik uchun foizlarni belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini oladi.
- 1.2.** Mikroqarz miqdori _____ (_____ so'm _____ tiyin) so'mni tashkil qiladi va tomonlarning garovga qabul qilingan ashyolarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatli ashyolarning napxlapiga muvofiq baholashi natijasida aniqlangan.
- 1.3.** Mikroqarz bo'yicha foizlar miqdori har bir kun uchun **0,30%** yoki 30 kunga **9,00%**, yillik **109,50%** miqdorida. Mikroqarz bo'yicha foizlar kredit berilgan kundan boshlab belgilangan foiz stavkasiga muvofiq kreditning haqiqiy qoldig'iga har kuni hisoblanadi va har oyda to'lanadi.
- 1.4.** Qarz summasi (mikroqarz summasi va hisoblangan foizlar) o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, "Lombard" har bir kechiktirilgan kun uchun **0.7%** miqdorida penya hisoblashga haqli.
- 1.5.** Mazkur shartnoma bo'yicha hisoblangan foizlar, komissiyalar va jarimalarning jami summasi yillik qarz miqdorining yarmidan qo'p miqdoridan oshmasligi lozim. .
- 1.6.** 1.2-bandda ko'rsatilgan mikroqarz miqdori "Qarz oluvchi"ga 30 kun muddatga taqdim etiladi. Mikroqarz va hisoblangan foizlarni to'lash sanasi: **00.00.0000 y.** "Qarz oluvchi" mikroqarz miqdorini mazkur shartnomada belgilangan to'lov muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega. Bunda "Qarz oluvchi" mikroqarz summasini to'lash bilan bir vaqtda shartnomaning 1.3-bandga muvofiq, mikroqarz mablag'idan haqiqiy foydalangan kunlar uchun "Lombard"ga foizlarini ham to'laydi.
- 1.7.** "Qarz oluvchi" o'z majburiyatlarini ta'minlash uchun, mulk huquqi bilan unga tegishli bo'lgan mol-mulkni (bundan buyon matnda mulk deb yuritiladi) garov shaklida taqdim etadi:

(mulk nomi, asillik darajasi, vazn)

- 1.8.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 289-moddasiga muvofiq lombardda ashyolarni garovga qo'yish haqidagi shartnoma "Lombard" tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

- 2.1.** "Lombard", "Qarz oluvchi"ga mikroqarzni, mazkur shartnomasi tuzilgan kunda pul mablag'larini taqdim berish majburiyatini oladi.
- 2.2.** Mazkur shartnomaning 1.6-bandida ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng, "Qarz oluvchi" mikroqarz summasini qaytarish, shuningdek "Lombard" ga mikroqarzdand foydalanganlik uchun to'lanmagan foizlarni lombard kassasiga yoki o'tkazish yo'li bilan pul mablag'larini to'lash majburiyatini oladi.
- 2.3.** "Qarz oluvchi" tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarish sanasi, "Lombard" kassaga yoki hisobbrakamiga mablag' kelib tushgan sana hisoblanadi.
- 2.4.** "Qarz oluvchi" murojaat qilganda va tomonlarning o'zaro roziligi bilan mikroqarzdand foydalanish muddati, mazkur shartnomaning 1.3-bandiga muvofiq hisoblangan foizlar miqdori to'langan taqdirda va mazkur shartnomaning 4.2 va 4.3 bandlarini imzolagandan so'ng uzaytirilishi mumkin. Umumiy foydalanish muddati uzaytirilgan mikroqarz uchun 90 kundan oshmasligi kerak.
- 2.5.** Mazkur shartnomaning 4.2 va 4.3-bandlarida nazarda tutilganidek, "Qarz oluvchi" tomonidan, mikroqarzdand foydalanish muddatini naqd pulsiz va (yoki) uchinchi shaxs tomonidan to'lanadigan foizlar va (yoki) jarimalar undirilgan holda "Qarz oluvchi"ning imzosisiz uzaytirilishi mumkin.
- 2.6.** "Qarz oluvchi" tomonidan o'z vaktida ijro qilinmagan yoki mazkur shartnomaning 2.2-bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortgan taqdirda, "Qarz oluvchi"ga asosiy majburiyatni bajarish vaqti - mikroqarzni to'lash muddati, taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oylik imtiyozli davr beriladi.
- 2.7.** Bir oylik imtiyozli davr davomida, "Qarz oluvchi" majburiyatlari quyidagi tartibda bajarilgan taqdirdagina mol-mulkni garovdan qaytarish huquqiga ega: -penya (jarima) to'lash, - mikroqarz bo'yicha foizlar to'lash, - asosiy qarzni to'lash.

2.8. Bir oylik imtiyozli davr tugaganidan so'ng, "Lombard" notariusning ijro yozuvi asosida mazkur shartnomaning 1.7-bandida ko'rsatilgan mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotish huquqiga ega.

2.9. "Qarz oluvchi" mikroqarzni o'z vaqtida to'lash bo'yicha majburiyatlari, shuningdek unga nisbatan foizlar o'z vaqtida va to'liq bajarilgan taqdirda, "Lombard" mazkur shartnomaning 1.7-bandida ko'rsatilgan mol-mulkni qaytarish majburiyatini oladi.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15-son Qarorining 12.06.2014-ildagi muvofiq, agar "Qarz oluvchi"ning talabiga binoan berilgan mikroqarz to'g'risidagi garov reestriga yozuv kiritilganligi uchun (mikroqarz olish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan bo'lsa) "Lombard", "Qarz oluvchi"dan ko'rsatilgan xizmat uchun, bazaviy hisoblangan miqdorining 10% miqdorida, garov reestriddan ko'chirmalar berilganligi uchun bazaviy hisoblangan miqdorining 5% miqdorida to'lov undiriladi.

2.11. "Lombard", jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarda qabul qilingan tegishli chora-tadbirlarni ko'rishga haqli.

2.12. "Qarz oluvchi", "Lombard"dan mazkur shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni (shu jumladan, ushbu shartnoma amal qilish muddati tugagandan so'ng ham), shuningdek reklama va axborot xususiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlarni (shu jumladan, yangi mahsulot va xizmatlarga oid), mobil va internet aloqasi orqali, SMS shaklida va barcha turdagi messenjerlar (Telegram va hokazo.), elektron pochta orqali olishga rozil bildiradi.

2.13. "Lombard", lombardda garovda bo'lgan mol-mulkni, butun davr uchun, o'z hisobidan, baholash miqdorida sug'urta qilish majburiyatini oladi.

2.14. "Lombard", lombarddagi mol-mulkni, butun muddat davomida xavfsizligini ta'minlash majburiyatini oladi. Lombard mol-mulkka zarar yetkazilgan taqdirda (sug'urta hodisasi yuz bergan hollar bundan mustasno) qarz oluvchining xoxishiga ko'ra zararni o'z mablag'lari hisobidan qoplashi yoki unga garov chiptasida ko'rsatilgan mol-mulkni baholangan miqdorda haq to'laydi. "Qarz oluvchi"ga haq to'langan taqdirda, mol-mulk "Lombard" mulkiga aylanadi.

2.15. Barcha operatsiyalar (garov, qayta garov, qaytarib sotib olish, saqlash uchun topshirish) "Qarz oluvchi" yoki "Qarz oluvchi" tomonidan vakolat berilgan shaxs bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.16. "Qarz oluvchi", ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun "Lombard"ga o'zining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi, shu jumladan: shaxsga doir ma'lumotlarga aralash ishlov berish orqali shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, ulardan foydalanish, uzatish (ta'minlash, kirish), shaxsiylashtirmaslik, bloklash, o'chirish, shaxsga doir ma'lumotlarini aralash ishlov berish orqali yo'q qilish;

2.17. "Lombard", "Qarz oluvchi"ga shaxsga doir ma'lumotlarga oid O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq "Qarz oluvchi"ning shaxsga doir ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishini kafolatlaydi.

3. Boshqa shartlar.

3.1. Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar yozma ravishda kiritilishi va tomonlar tomonidan imzolanishi kerak.

3.2. Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi, biroq "Qarz oluvchi" mazkur shartnoma buyicha majburiyatlarni ta'minlash maqsadida garov predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun shaxsan javobgardir.

3.3. Tomonlar o'rtasida ushbu shartnomani bajarish bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizola muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar tomonlar muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishmagan bo'lsalar, mazkur nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudga yuboriladi.

3.4. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar barcha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

3.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan, har bir tomon uchun bittadan.

4. Maxsus shartlar

4.1. Tomonlarning kelishuvi bilan foiz ____% ga kamaytirildi.

4.2. Kredit shartnomasiga qo'shimcha shartnoma № ____ " ____ " ____ 20__y.

Tomonlarning kelishuviga binoan kredit muddati " ____ " ____ 20__yildan, " ____ " ____ 20__yilgacha uzaytiriladi.

Direktor: _____
(imzo)

Qarz oluvchi: _____
(imzo)

Buxgalter-nazoratchi: _____
(imzo)

4.3. Kredit shartnomasiga qo'shimcha shartnoma № ____ " ____ " ____ 20__y.

Tomonlarning kelishuviga binoan kredit muddati " ____ " ____ 20__yildan, " ____ " ____ 20__yilgacha uzaytiriladi.

Direktor: _____
(imzo)

Qarz oluvchi:

(imzo)

Buxgalter-nazoratchi: _____
(imzo)

5. Tomonlarning manzillari va rekvizitlari

LOMBARD

QARZ OLUVCHI

Rekvizitlar:

Nomi:ООО "ЛОМБАРД ХАМКОР-КРЕДИТ"

Manzil:Ташкент Яшнобод тумани Ул. Фаргона
йули, дом-2, кв-75

Rekvizitlar:

ОАТ "Турон банк" Яшнободский ф-л

РС 20216000604519165001

ИНН 206660285

МФО 00446

Tel:(71)295-80-04; (71)295-80-14

ТО'ЛИҚ ИСМИ SHARIF:

Pasport ma'lumotlari:

Manzil:

INN:

Tel: